

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIV KUTUBHOLATASI

Tong  
**YULDUZI**

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

Jamalak sochlari o'ziga yarashib turgan suratdagi qizaloquing ismi Shoiraxon. U Olmalig shahridagi 11-umumta'lum maktabining 4-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Bog'cha yoshidanoq san'atga mehr qo'yib, hozirda maktabda tashkil etilgan raqs to'garagida ustozi Gulsara o'pa Soburovadan bu nafis san'atning nozik sir-sinoatlarini o'rganib kelyapti.

Shoiraxon Topilxonovaning kelgusidagi maqsadi tayin: puxta bilim olib, iqtisodchi bo'lib, yurtimizning iqtisodiy rivojiga o'z ulushini qo'shmoqchi.



Husanboy AVVALOV  
olgan surat.

Gazetxon o'quvchilar,  
eshitmadim demanglar!

Sevimli nashringiz «Tong yulduzi»  
gazetasiga 2009-yil uchun

**OBUNA**

boshlandi.

Nashr ko'rsatgichi: 198

2008-yil  
22-sentabr  
N:38  
(66683)

## DUSHANBADA

### «AVESTO» YODGORLIGI POYIDA

Urganch shahrida «Avesto» yodgorligi poyida «O'zbekiston» madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi hamda «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati Markaziy kengashi tomonidan o'tkazilib kelinayotgan «Kelajak ovozi» tanloving viloyat g'oliblari munosib taqdirlandilar. G'oliblikni qo'lg'a o'z kuchlarini sinashadi. Ularga omad yor bo'lsin!

### BOLALAR BAYRAMI

Jizzaxda «Do'st bilan obod uying» mavzuida o'tkazilgan Respublika bolalar festivali haqiqiy bolalik bayramiga aylandi.

Unda ishtirokchilar rang-barang dasturxonlarini namoyish etish bilan birga, shaharning diqqatga sazovor joylarini – o'quvchilar saroyi, bolalar ijodiyoti markazlari bilan tanishib, olam-olam boy taassurotlarga ega bo'ldilar. Eng muhim, bolalar birlari bilan yaqindan tanishdilar, do'stlashdilar.

## DUSHANBAGACHA



### KITOBLAR OLAMIGA SAYOHAT

«O'zko'rgazmamarkaz»da Mustaqilligimizning 17 yilligiga bag'ishlangan «O'ZBEK in PRINT» va «O'ZUPACK» o'ninchisi xalqaro ko'rgazmlari bo'lib o'tdi.

Men ham sinfdoshlarim bilan bu ko'rgazmaga tashrif buyurdim. Ko'rgazmada nafaqat mamlakatlarimizda, balki xorijda ham taniqli bo'lgan, bizga bir-biridan chiroyli darsliklar nashr qilayotgan «O'zbekiston», «O'qituvchi», «Cho'lpon» va «G'afur G'ulom» nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi va boshqa tashkilotlarning eng yaxshi bosma mahsulotlarini namoyon qilishdi. Bizga ko'rgazma ishtirokchilari kalendarlar, plakatlar, turli reklama mahsulotlarini sovg'a qilishdi. Ayniqsa, yaqinda Moskvada bo'lib o'tgan xalqaro kitob ko'rgazmasining «Kitob san'ati» xalqaro ko'rgazmasi tanlovida II darajali diplom bilan taqdirlangan «Art FLEX» MCHJ nashriyotining «Rasmlarda tarixiy lavhalar» kitobini qo'limizga olib ko'rishiya tuyassar bo'ldik.

Ko'rgazmada yana bir sovrindor kitob bilan ham

tanishdik. Bu «Cho'lpon» nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan «Ertaklar karvon» kitobidir.

Biz ko'rgazmada zamonaviy matbaachilikning yangi texnologiyalari bilan tanishib, tajribali shoir va matbaachilar bilan suhbatlashdik. Hatto kompyuter orqali rejalashtirilib, yog'ochga o'ymakorlik ishlarni bajaradigan texnika vositalarining ishi bizda katta taassurot qoldirdi.

Xalqaro ko'rgazmada mamlakatimizning 50 dan ortiq, chet elning 20 dan ortiq firma va kompaniyalari, nashriyot va matbaa korxonalarining ishtiroki uning nufuzi yildan yilga oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Bu an'anaviy ko'rgazmada biz bolalar uchun nashr qilinayotgan yangi kitoblarning namoyishini yana-da ko'paytirishsa, ularning mualliflari bo'lgan taniqli adiblar bilan uchrashuvlar tashkil etishsa, ayni muddao bo'lardi. Chunki kitoblar bugunimiz va ertamiz, bizning ilm chashmamiz.

NURISLOM,  
Toshkentdag'i 97-maktabning 5-sinf o'quvchisi

Qadrdon gazetam!

«Xadra» qanday ma'noni anglatishi haqida ma'lumot berishingizni so'rayman.  
SAODAT

**Ko'chaning eng chekkasi**

Ba'zida yonimizdag'i voqealarga befarq qaraymiz, natijada, birov so'rab qolsa, uyalib, yer, chizib qolamiz.

Jumladan, Xadra, Xadra deymiz-u, uning ma'nosiga kelganda, mum tishlab qolamiz. Ko'p bilganga nima yetsin?!

Xadra – Toshkentning Eski shahar qismidagi murakkab chorrahalaridan biri. Oldingi zamonlarda Shahriston bilan chegaradosh bo'lgan, G'arbdan

Chorsu, Sharq tomondan O'rda bilan bog'lagan, Janub tomoni esa Beshyog'och dahasiga olib borgan va shu bois ham olimlar Xadra nomi Xadiroh, ya'ni ko'chaning eng chekkasi, tugamagan joyi sifatida (Xad – chegara, roh – ko'cha) talqin etilgan.

**– Kokillaringiz muncha chiroyli?!****Izquvar qidirayotgan izni toping****«HAZIL QILIB  
YASHAGANGA  
NE YETSIN?!»**

Yana bir kundan so'ng poytaxtimizning muhtasham «Istiqlol» madaniyat saroyida Rossiya estradasining yorqin yulduzlaridan biri Dima Bilanning yakkaxon konserti o'tkazilishi haqidagi xushxabar estrada qo'shiqlari ixlosmandlari bo'lgan bolajonlarni ham behad

4-o'rin sohibi bo'lgandi.

Yosh iste'dod sohibining eng katta muvaffaqiyati uning «Evirodeniye – 2008» xalqaro qo'shiqchilar tanlovida ishtirot etgani bo'ldi. Mazkur nufuzli musiqiy forumda kuylagan ingliz tilidagi «Believe» nomli

Toshkent – 2200

**XO'P BO'LADI!**

– Begzodjon, bolajonim, darrov magazindan non olib kelgin, xo'pmi?

– Xo'p bo'ladi, buvijon!

– Begzodjon, kel, mana bu uzumni xomtok qilib qo'yamiz, qarashib yubor, – deydi buvajonisi.

– Xo'p bo'ladi, buvajon!

Bir kuni men ham qo'limda yuk bilan ishdan horib kelayotsam, Begzod yugurgilab borib qo'limdan sumkamni oldi-da, uyimizga qarab g'izzillab ketdi.

– Voy, barakalla, buncha ham chaqqonsan, senga yetib ham ololmayapman, tarbiya bergen buva-buvijoningga, ota-oningga ming rahmat, – deya orqasidan yetib olishga harakat qilib, unga savol bera boshlayman. – Begzodjon, o'qishlar qiyin emasmi? Qaysi maktabda, nechanchi sinfda o'qisan?

– Biroz qiyinroq, axir katta sinfga o'tdik-da. Toshkentdag'i 303-maktabning 7-sinfida o'qiyman. Darsdan bo'sh vaqtimda sog'lom bo'lishim uchun suzishga boryapman, karate bilan shug'ullanishga ham ulguraman. Kelajakda ota-onamga munosib farzand bo'imochiman.

– Niyatlaring hamisha o'zingga yo'ldosh bo'lsin, shunday shijoat, mehr-oqibat, o'z ona yurtingga bo'lgan sadoqat seni tark etmasin, – dedim Begzodjonga havas bilan tikilib.

*Manzura BONU*

**MENGA YOQQAN MAQOLA**

Gazetamizning 36-sonida chop etilgan «Bir kunini yo'qotgan bola» maqolasini o'qigan bo'lsangiz kerak. Siz kabi Om'onboining sarguzashtidan ta'sirlangan ba'zi tengdoshlarining o'z munosabatlarini yozib yuboribdilar. Demak, orangizda suvni qadrlaydigan bolalar ko'p ekan-da?!

**OMONBOYGA UCHRAGAN SAROB**


Ustozimiz ham doim suvni qadrlash kerakligini uqtirardilar. Lekin men «Bir kunini yo'qotgan bola» maqolasini o'qib, o'zimga birinchi marta savol berdim: men bu ne'matni qadrlayapmanmi? Maqlada yozilganiday, suvga chiqindi tashlayotgan o'rtog'imga hech tanbeh berdimmi? Axir, asosan biz bolalar ko'pincha suvni isrof qilib qo'yamiz. Kattalarning tejamkorliklaridan o'mak olish o'miga, ularni ziqlanlikda ayblaymiz. Keling, do'starlar, suvni toza saqlashni bugundan, o'zimizdan boshlaylik. Zero, bir kun kelib hech birimiz Om'onboyday bir qultum suvga zor bo'lmaylik! Ha, aytgancha, Om'onboyga uchragan narsa sarob bo'lsa kerak. Mening javobim shunday.

*Gulchehra UBAYDULLAYEVA,  
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 172-maktab o'quvchisi*

**SUVDA SEHR BOR**

Suv haqidagi maqolani o'qib, suvning sehrini va qadrini tushundim. Suvga tupurish gunohligini bilib esa o'ylanib qoldim. Axir biz bugun suvga qancha chiqindilarni tashlaymiz-ku, ertaga bu gunohlarni qanday yuvamiz?! Masalan, mening bir dugonam uylarining yo'lagini shundoqqina ariqqa qarab supuradi. Unga tanbeh bersam, shunday qilsa, ishi osonlashayotganini aytib, quloq solmaydi. Men tengdoshlarim suvni toza saqlashlarini istayman. Shuning uchun gazetada e'lon qilingan insholar tanloviga ham o'z fikr-mulohazalarimni yozib yubormoqchiman.

*Gulchiroy SALIMOVA,  
Farg'onan viloyati,  
Quva tumanidagi 4-maktab o'quvchisi*



qvontirgan bo'lsa, ajabmas. Chunki bu ajoyib ovoz sohibining qo'shiqlarini ko'pchilik sevib tinglaydi.

Taniqli mega yulduz haqidagi ayrim ma'lumotlar bizningcha hammaga qiziqarli bo'lsa kerak.

Dima Bilan Rossiya Federatsiyasiga qarashli Qabardin-Bolqar avtonom respublikasining Mayskiy shahridagi musiqa maktabalaridan birida tahsil olgan. Dima 2002-yili Rossiya – Latviya davlatlari hamkorligida tashkil etilgan «Yangi to'lqin» («Novaya volna») festivalida ilk bor sahnaga qadam qo'yib,

taronasi 272 ovoz olib, anjumanning eng yaxshi qo'shig'i, deya tan olindi.

Dimaning qiziqish doirasi juda keng. Hamyurtlarining sport sohasidagi yutuqlaridan faxrlanib, ularga ashaddiy muxlislik qiladi. Shuningdek, u hazilni yoqtiradi. Hazil-huzul qilib, vaqtichog'lik bilan yashaganga nima yetsin, deydi u.

Mazkur konsert munosabati bilan Toshkent shahri hokimligi va «Kamolov. Uz» mas'uliyati cheklangan jamiyatni «Bolalarimiz kelajagi bizning qo'limizda» nomli beg'araz homiylik aksiyasini o'tkazmoqda. Unda Toshkentdag'i ko'plab «Mehribonlik uy»larining tarbiyalanuvchilariga Dima Bilanning konsertiga bepul chiptalar tarqatiladi. Binobarin, bunday xayriya aksiyalarining o'tkazilishi moddiy va ma'naviy madadga muhtoj bolalarning kayfiyatini ko'tarishi, ularning murg'ak qalblarida san'atga mehr uyg'otishi, demakki, ezgulik sari yetaklashi shubhasiz.

*Farhod TEMUROV*

## SEMIZLIKKA QARSHI KURASH



Britaniya hukumati ota-onalarga farzandlarining ortiqcha vazniga e'tibor qaratishlarini eslatmoqdalar. Hozirda 10 yoshgacha bo'lgan Angliya o'quvchilarining bo'yivaya vazni mакtabda tekshirilmoqda. Tekshiruvdan so'ng ortiqcha vaznli o'quvchilar haqida ota-onalariga xabar beriladi.

Sog'lijni saqlash vazirligi ta'kidlashicha, hukumat bolalarning vazn ortishi

muammolari bilan jiddiy shug'ullanmoqda. Lekin shu kungacha bu borada biror qat'iy qaror qabul qilinmagan.

Ortiqcha vaznga ega bo'lgan bolalarda 25-35 foizida kasallikka moyillik yuqori bo'lishi aniqlangan. Xalqaro «Semizlikka qarshi kurash» forumi xodimi Tem Froy fikricha, bolalarni bog'cha yoshidan, ya'ni 2-3 yoshligidanoq sog'lom turmush tarziga, ularning ovqatlanishiga, jismoniy mashg'ulotlarga o'rgatib borish darkor. Aks holda, 2050-yilga kelib erkaklarning 60 foizi, ayollarning 50 foizi ortiqcha vazndan aziyat chekadilar.


## QIZLARGA XOS EMAS

Mutaxassislar tamaki chekish bo'yicha 140 mamlakatda so'rvonoma o'tkazdilar. Aniqlanishicha, Hindistonda talabalarning 17 foizi, ya'ni 15 yoshli o'smirlar orasida tamaki chekish kuchayib ketgan. Chekuvchilarining katta qismini qizlar tashkil etishi mutaxassislarni xavotirga solmoqda.

Maktab o'quvchilari orasida esa har uchtasidan biri chekuvchilarini tashkil qilar ekan. Ta q i q l a b q o ' y i l g a n i g a qaramay, voyaga yetmaganlarga tamaki sotish oxirgi uch yil mobaynida kamaymagan. So'rvonmani tahlil qilgan mutaxassislar Hindistondagi maktab va bilim olish muassasalarida tamakining zararli oqibatlari haqida o'quvchilarga tushuntirish ishlari ko'proq olib borish kerakligini ta'kidlamoqdalar.


## ENG BOY MAKTAB

Rossiyada yangi o'quv yili arafasida matbuot anjumani o'tkazildi. Har yili maktab ta'miri, yangi o'quv jihozlari, darslik va boshqa qo'llanmalar uchuń mablag' ajratilar edi. Bu usul samarasiz deb topilgach, bu mablag' har bir o'quvchiga ajratilmoqda. O'quvchilar uchun ajratilgan mablag' maktab fondiga tushirilmoqda. Endilikda Rossiyada o'quvchisi ko'p maktab eng boy maktab bo'lib qolmoqda.




## «DIQQAT, BOLALAR!»

Yozgi ta'til tugab, bolajonlar yana qadrdon maktablariga oshiqadilar. Afsuski, ayrim haydovchilar kichkintoylar yo'lni kesib o'tayotganlarida uzoqdan kelayotgan mashinaga e'tibor qaratmasliklarini unutib qo'ymoqda. Statistik ma'lumotlar bo'yicha bolalar bilan sodir bo'layotgan avtohalokatlar aynan avgust va sentabr oylarida sodir bo'lar ekan. Bu ko'ngilsiz hodisalarni oldini olish uchun Volgograd viloyatida «Diqqat, bolalar!» tadbiri o'tkazilyapti. Tadbirda ota-onalari bilan ishtirok etayotgan bolalarga yo'l harakati xafvsizligiga oid chora-tadbirlar tushuntirilmoqda.



## ZARARLI NURLAR

Bangladeshda 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga uyali telefon dan foydalanish taqiqlangan. Mujibar Rahmon nomidagi tibbiyot universiteti doktori Ismat Kabir fikricha, uyali aloqada ikki daqidan ko'p suhbatlashish bolalar uchun zararli ekan. Mamlakat poytaxti Dakkeda bo'lib o'tgan anjumanda olimlar bu masalani chuqur o'rganib, tahlil qildilar. Natijada, maktab o'quvchilariga uyali aloqadan foydalanishni qat'iy man etdilar. Bundan yagona maqsad zararli va radioaktiv nurlardan himoya qilishdir.



## O'QUVCHILAR JABRLANMADI

Kareliyada 40 nafar maktab o'quvchilarini olib yo'lga tushgan sayyoqlik avtobusi tunda yonib ketgan. Petrazavodskdan Finlyandyaga yo'l olgan avtobus ichida o'quvchilardan tashqari sakkizta kuzatuvchi va ikkita haydovchi bo'lgan.

Voqealik Petrazavodskdan 26 km. uzoqlikda sodir bo'ldi. Avvaliga avtobusning bir g'ildiragi yonib, so'ngra yong'in salonga o'tdi. Kattalarning chaqqon harakatlari tufayli o'quvchilardan hech biriga ziyon yetmagan.



Internet xabarlari asosida tayyorlandi

## SO'RAMA

Iltimos, ortingga qaramay ketgin,  
Sababin o'zimdan so'ramay ketgin,  
Qalbimda armondek yaramay ketgin,  
Ne uchun deb faqat so'rama, yetar.

Bizning hayotimiz ezgulikka mos,  
Yo'lingdan qolmagin, mudom olg'a bos,  
Mening yig'laganim o'zim uchun rost,  
Ne uchun deb faqat so'rama, yetar.

Gulsara ASHUROVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Abdulla Avloniy nomli 83-o'rta maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi

## QUYOSH - ONA

Olam uyining chirog'i - Quyosh.  
Onadek u ham mehribon, yuvosh.  
Olam uyining chirog'i ona.  
Ikki Quyoshga bizlar parvona.  
Bor bo'lsin doim shu ikki Quyosh.  
Ular bor ekan - olam doim yosh!

Olqor DAMIN,  
Samarqand

## TONGDA

Tun ketib otadi tong,  
Soatlar uradi bong.  
Esar mayin shabada,  
Toza havo mazza-da.

Tinmay qichqirar xo'roz,  
Biroz daming ol, shovvoz!  
Kechikmaylik, deb hamon  
Shoshamiz maktab tomon.

Visolaxon  
TOSHPO'LATOVA,  
Toshkent

## UMID

Yuragimga shu'la tushib,  
Nurli umid uyg'ondi.  
Ilk qadamlarimda,  
Yangi mazmun to'lg'ondi...

Yetaklaydi orzular,  
Erk-ixtiyorm olib.  
G'uncha ochar qalbimda,  
She'riyat chiqar g'olib.

Sevinchoy YOQUBOVA,  
poytaxtdagi 118-maktabning  
7-sinf o'quvchisi

*Kitoblar zamon dolg'alarida suzuvchi va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir.*

BEKON


Oramizda bir inson bor. Xuddi Hizr bувага о'xshab faqat yaxshilarga uchraydi. Uchraganda ham o'zidan nur va ziyo taratadi. Ayniqsa, kitobsevar bolajonlar u insonga ko'p bora duch kelishadi.

—Muhammadali, kutubxonadan olgan kitobingni vaqtida topshirsang bo'lmaydim? Bunday odating yo'q edi-ku. Senga nima bo'ldi o'zi?..

Kutubxonachi opaning jahli chiqqanicha bor edi.

tug'ilди ва: «Katta bo'lsam, maktabim kutubxonasini kitoblar bilan to'ldirib tashlayman», deb ahd qildi.

Oradan yillar o'tib, Muhammadali ulg'aydi. Topgan puliga kitob xarid qilib, shaxsiy kutubxonasini tashkil qildi. Kunlarning birida orzusini amalga oshirish maqsadida, o'zi o'qigan Denov tumanidagi Bobur nomli 9-maktabga shaxsiy kutubxonasini topshirdi. Shundan keyin ham bu savobli ishini davom ettirdi. O'zi istiqomat qilayotgan Shayxontohur



## KITOB YO'QOTGAN BOLA

Muhammadali esa olgan kitobini yo'qotib qo'yganini qanday tushuntirishni bilmay, sukul saqlardi. Yaxshiyamki, suhbatga onasi kelib qo'shildi:

— Singlim, o'g'lim judayam kitob o'qishni yaxshi ko'radi. Olgan kitoblarini doim vaqtida topshirardi-ku. Biror sababi bordirki, kitobni vaqtida qaytarolmagan.

— Sababi bor, — dedi Muhammadali yerdan ko'zini uzmay. — Kitobni... yo'qotib qo'ydim.

Kutubxonachi opa avvaliga hayron bo'ldi. Keyin esa yo'qolgan kitob uchun 10 barobar ko'p pul to'lanishini ma'lum qildi. Ona ro'moli uchiga tugilgan pulni olib kutubxonachiga uzatdi. Onasi va kutubxonachi opa oldida izza bo'lgan Muhammadalining qalbida bir orzu

tumanidagi 320-maktab kutubxonasi ga bayram arafasida 1000 dona kitob sovg'a qildi. Muhammadali hozir ham sevimli yozuvchilarimiz Ozod Sharafuddinov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, Xayriddin Sultonov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik, Muhammad Yusuf, Erkin A'zam, Omon Matchon asarlarini sotib olib kutubxonalarga tarqatishdan charchamayapti.

## Oz-oz o'rganib, dono bo'lur!

Bugun sen bilan mardlik haqida so'zlashmoqni ixtiyor etdim, aziz ukajonim! Mard ulkim, tilga zo'r bermaydi, o'zini ko'z-ko'z qilmaydi, qahramonlikni jasorat emas, o'zining burchi deb biladi.

Urushda bir askar nishon olish uchun komandiriga yaldoqlandi. Uning atrofida o'ralashib, buyurgan-buyurmagan xizmatlarini qilib, oxiri maqsadiga erishdi. Lekin hamma uning ustidan kuldi. Bunday soxta obro'nинг kimga keragi bor?!

Xatarga duch kelganda, mard odam uni jasorat bilan yengib o'tadi. Nomard-chi?

Jangda askarlardan biri qo'rqaqlik qilib, butalar orasiga yashirinib, jonini saqladi. Komandiri uni ko'rib turgandi. Jangdan so'ng hamma safga tizilgach, komandir uni rosa maqtadi. Askar esa uyanganidan yer chizib qoldi.

Kimki nomardlik qilsa, ana shunday izza bo'ladi.

«Davlatingdan ayrilsang, ko'p narsa yo'qotmaysan; nomusingdan ayrilsang, ancha narsa yo'qotasan; mardligingdan ayrilsang, hamma narsandan mahrum bo'lasan», degan ekan donolardan biri.

Kuchli odamlar hayotda mard bo'ladilar. Seni mardlik tark etmasin. Chunki mardlik qalbning buyuk fazilatidir. Kimdaki shu fazilat bor ekan, u g'ururlansa arziydi, seni ham ana shunday g'ururlanadigan farzand bo'lishingni istab, ushbularni qog'ozga tushirdik. Bundan ozgina saboq olgan bo'lsang, demak, sen ham mard ekansan, aziz ukajonim!

SHAHNOZA tayyorladi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda bir donishmand chol va mushtipar kampir yashagan ekan. Ularning uch o'g'li va bir qizi bo'lgan ekan. Ular bolalariga turli-tuman kasb-hunarlarini o'rgatishibdi. O'g'illariga ovchilik, dehqonchilik, duradgorlik, qiziga tikish-bichish, turli taomlarni tayyorlash, mehmon kutish, raqsga tushish, hatto chaqaloqlarga alla aytishni ham o'rgatishibdi.

Oydan oy, yildan yil o'tib, farzandlar birin-ketin voyaga yetishibdi. Kunlarga bir kun donishmand chol farzandlarini yig'ib, shunday debdi:

— Bolalarim, men qarib qoldim, ko'zindan nur, tanamdan quvvat ketdi. Sizlar mening baxt-u saodatim, mol-u davlatim, ishongan bog'im, suyangan tog'imsizlar. Biz onangiz bilan bisotimdag'i

## HUMO QUSHI

ilm-u hikmat, kasb-u hunarlarni sizlarga o'rgatdik. Endi biz so'ngsiz yo'l boshida turibmiz, besh kunlik umrimiz bormiyo'qmi, buni Xudoning o'zi biladi. Biz ezgulik ulashdik. Umr bo'yи mehnat qildik. Sizlarni kamolga yetkazdik va lekin ba'zi-birovlarga o'xshab har biringizga alohida-alohida uy-imorat, zebi-ziyarat qoldira olmadik.

Aytadigan so'nggi so'zimiz, pand-u nasihatimiz shulkim, iyomon-e'tiqod sizlarni hech qachon tark etmasin. Qulog'ingizda tuting, ezgulikka



(Ertak)

intilib yashang.

Buning ma'nisi shuki:  
Iyomon bilan fikr qiling,  
Iyomon bilan so'z so'ylangiz,  
Va iyomonga amal qiling.  
Ya'ni, andishali bo'ling,  
Uyalib qolmaysiz, doimo  
Izzat-ikromda bo'lasiz.

Donishmand chol shu so'zlarni arang aytib, jon taslim etibdi, uning orqasidan kampir ham olamdan o'tibdi. Bolalarning o'zlarini qolishaveribdi.

Lekin ular qishloqdan tashqariga chiqishmas, o'zlariga qayliq axtarishmas, boriga baraka qabilida ota-onasidan qolgan uyda baholi qudrat yashayveribdilar. Har birining o'ziga yarasha kasb-kori, ish mashg'uloti bor ekan. Lekin topganlarda baraka, turmushlarida huzur-halovat yo'q ekan.

*Jannatmakon divorimiz dovrug'i qit'alar, okeanlar osha bo'ylayotgani, uni dunyo e'tirof etayotgani rost.*

*Bunda o'z iqtidori-yu salohiyatini chet ellarda namoyon qilib kelayotgan yoshlarimizning hissasi katta, albatta.*

*Toshkent viloyati, Zangiota tumanining «Ittifoq» qishlog'i madaniyat uyi goshidagi «Umid» folklor-raqs jamoasining ham bu borada o'rni beqiyos.*

*Qirqdan ziyod iste'doddarni o'z safiga jamlagan mazkur jamoa yaqinda nafis va muattar gullar vatanini bo'lmish Gollandiyaning Odorn shahrida bo'lib o'tgan «SIVO» xalqaro folklor raqs festivalida muvaffaqiyatlari qatnashib keldi.*

*Qani, quloq tutaylik-chi, safar taassurotlari haqida dastanining badiiy Kengash raisi Sunnathoji Qo'chqorov hamda ijrochi direktori Sharif Abdurahmonovlar nimalar deyisharkin:*

– An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan 24-Xalqaro folklor festivalida 24 ta xorijiy davlatlarning eng mashhur ijodiy jamoalari va pro-



fessional guruhlari ishtirok etdilar. Ruminiya, Finlandiya, Hindiston, Bosniya, Kipr, Ispaniya, Portugaliya kabi davatlardan kelgan mingga yaqin festival qatnashchilari Odorndagi eng katta o'yingohni to'ldirib yubordilar. San'at uchun millatning, tilning ahamiyati yo'q, deganlaricha bor ekan. Qaysi davlat vakili bo'lishidan qat'iy nazar, badiiy jamoalarning chiqishlarini ixlosmandlar

Kunlardan bir kuni ular orasida nizo chiqib, bahsga kirishib, masala talashib, janjallahib qolishibdi.

– Men sizlardan ko'ra aqlli qomman, chunki mening yoshim katta, – debdi o'g'llarining kattasi.

– Men sizlardan kuchliman, – debdi o'rtancha o'g'il.

– Men kenja o'g'ilman, kenja o'g'il uyning xo'jayini bo'ladi. Aqli bo'lsangiz, hunaringizni ko'rsating, boy bo'ling, shaharga borib, uy quring, bola-chaqa qiling. Baquvvat bo'lsangiz, kurash tuting. Polvonlar lashkarboshi bo'lishadi. Nima qilasizlar otamdan qolgan eski uyni talashib, – deya ularga dashnom beribdi ukasi. Shu taripa ular tonggacha talashib-tortishib, dong qotib uxlab qolishibdi. Ittifoqo uchchalovi ham bir xil tush ko'rishibdi. Tushlarida otasi ularga avvalgi pand-

katta qiziqish bilan qarshi olishdi. Biz ham Gollandiyada «to'y qildik» desak, ishonavering. Milliy qadriyatlarmiz, an'ana va urf-odatlarimiz ruhi singdirilgan «O'zbekistonda to'y» nomli teatrlashtirilgan ommaviy badiiy tomoshamiz haqqiy tantanaga aylanib ketdi. To'y marosimiga kelgan mehmonlarning holatini ko'z oldingizga bir keltirib ko'ring-a: kayfiyatlar ko'tarinki, mezonlar sharafiga samimiy niyatlar bildiriladi. Buyerda ham xuddi shunday bo'ldi. Yig'ilganlar karnay-yu surnay sadolariga, kuy va qo'shiqlar ohangiga monand qarsak chalib, raqsga tushib, bizni qo'llab turishdi. Ushbu sahnani tayyorlagan dasta rejissori va baletmeysteri Nurxon Zulunova-

dasturini tayyorlagan sozanda Davronbek Akbarbekovning birvarakayiga uchta doirani sayratishini kuzatgan tomoshabinlar hayratlarini yashirolmay, o'rinalidan turib olqishlashdi.

Yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilib, stadionni «O'zbekiston, O'zbekiston!» degan hayqiriqlar tutib, yurtimiz sharafiga mushakbozlik qilinganidagi holatimizni so'z bilan ifodalash mushkul. Faxr va iftixon tuyg'ularidan to'lqinlanib, ko'zlarimizda quvonch yoshlari qalqidi.

– Ushbu xalqaro festivalni mana 24 yillardiki, o'tkazib kelamiz. O'zbekistonliklarning festivaldagagi ilk ishtiroki bizni benihoya quvontirdi. Raqqosalarning nozik va chaqqon harakatlari, ko'zni qamashtiradigan darajadagi sahna liboslari, sozandalarning mahorati qalblarimizni



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, mister Azim Azizovga cheksiz minnatdorchilikimizni bildiramiz, – dedi mamnuniyat bilan «SIVO» xalqaro festivali tashkiliy qo'mitasining prezidenti janob Xans Post.

– Nihoyat, festivalning eng hayajonli damlari yetib keldi. Barcha delegatsiyalar qatori bizning jamoaga ham maxsus diplomlar, esdalik sovg'alari va «SIVO» xalqaro festivalining bayrog'i topshirildi. Ispaniya, Meksika, Ruminiya, Rossiya, Germaniya kabi davlatlardan kelgan guruhlarning rahbarlari bizni o'z davlatlarida o'tkaziladigan xalqaro musiqa va raqs festivallariga taklif qilishdi. O'z navbatida, guruhimiz rahbari ham ularni 2009-yili yurtimizning ko'hna va navqiron

## GOLLANDIYADA O'ZBEKCHA TO'Y

ning mahoratiga, «Dilxiroj» raqsini maromiga yetkazib ijro etgan raqqos Sunnat Karimovning iste'dodiga, mashhur «Tanovar» raqsiga xirom etgan Dilafruz Qodirovaning san'atiga tasannolar aytishdi, sahnani turfa gullarga ko'mib tashlashdi. Ayniqsa, «Uch doirada bir o'zi»

chinakamiga rom etdi. Bu tashrifni O'zbekistonning bizga ko'rsatayotgan cheksiz hurmat va ehtiromi deb bilaman. Shuningdek, bu ajoyib o'lkanning yuksak madaniyati, betakror, go'zal san'atini «Umid» jamoasi timsolida yaqqol namoyon eta olgan, shunday ajoyib jamoani shakllantirgan dastanining Bosh direktori,



Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan «Sharq taronalari» xalqaro festivaliga taklif etdilar.

Rango-rang gullar o'lkasi bo'lmish Gollandiya, Niderlandiya davlatlarida o'tkazilgan festivaldan bir olam taassurotlar bilan ona yurtimizga qaytdik.

Kuni kecha yana bir quvonchli xabarni eshitdi: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi nomiga «SIVO» xalqaro folklor raqs festivalining tashkiliy qo'mitasidan dastamizning ushbu muhim anjumandagi namunali ishtiroki uchun minnatdorchilik maktubi kelibdi. Bu e'tibor san'atimizga san'at qo'shib, bizni yana-da ruhlantirib yubordi.

Feruza JALILOVA yozib oldi

nasihatini yana takrorlab:

– Bolalarim, iymon bilan o'ylashib, iymon bilan so'zlashsalarin va iymonni o'rta ga qo'yib harakat qilsalaringiz, aql-u zakovatni ishlatsangiz, har biringiz o'z baxtingizni topasiz, boy-badavlat va obro'-e'tiborli bo'lasislar, – deya qorong'ulik qa'rige chekinib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Ertasi ertalab og'a-inilar har biri o'z tushlarini bir-birlariga bayon etishibdi va insofga kelishib, ota rozi – Xudo rozi, deganlaridek, tarqalib ketishibdi. Kichik o'g'il dalada qolib, qo'sho'kizni haydar, dehqonchilik qilibdi.

Kunlardan bir kun yurtning podshosi vafot etgan ekan. Taomilga ko'ra podshohning o'g'il farzandi bo'lmasa Humo (davlat qushi)ni uchirib yuborar ekan. Davlat qushi

kimning boshiga qo'nsa, o'sha kishi mamlakat podshosi bo'lar ekan. Baxti kulgan kenja o'g'il boshiga Humo qushi qo'nibdi. Saroy ahillari, «Attang, qush adashdi, shekilli», deb uni qaytadan uchirsalar, yana o'sha ho'kiz haydar yurgan kenja o'g'il boshiga qo'naveribdi.

Darhol kenja o'g'ilni shaharga keltirib, xon deb e'lon qilibdilar. Uch kecha-yu uch kunduz to'y qilib, xon qizi malikani unga nikohlab beribdilar.

Ertasi kuni kuyov-xon tong otishi bilan uyg'onibdi. Qarasa, oppoq par to'shak, par yostiqlar ustida paridek go'zal malika uning yonida uxlاب yotgan emish. U birdan seskanib ketibdi va vahimaga tushibdi.

– Men bir g'arib, kambag'al dehqon o'g'li edim. Dalada ho'kizlar, yuda singlim qoldi. Bordi-yu, ho'kizlarni bo'rila yeb, uyimizni o'g'rilar talab ketishsa, singlimni

ahvoli ne kechadi... Uyni yolg'iz tashlab bu yerda yotsam bo'lmash-deya o'ylab qolibdi. Qarasaki, hamma yodqa soqchi, eshiklar berk.

U o'ylanib o'tirmay, oyna-derazadan oshib pastga tushmoqchi bo'libdi.

Qal'a devorlari yonida turgan qorovullar uni o'g'ri deb gumon qilib, boshini shartta qilichdan o'tkazibdilar va saroya olib kelibdilar. Saroy ahli yangi kuyov-xonni tanibdilar. Darrov qabrga joylabdilar.

Qissadan hissa: Baxt qushi – Humo har kimning ham boshiga qo'navermas ekan, agar mabodo qo'nsa, bir marta qo'nar ekan. Darhaqiqat, kishida tug'ma aql bo'lmasa, u taxt-u baxtni saqlab qola olmas ekan. Toj-u taxtga erishgan kenja o'g'il otasining o'gitlariga amal qilganida, boshidan judo bo'lmash, ota-bobolarining ruhi-poklari oldida qarzdor bo'lib qolmas edi.



# TUG'ILGAN KUN



**Shodmon OTABEK**  
(Hikoya)

Asil maktabdan chiqqanida, yomg'ir shivalay boshladi. U yupqa kiyangan, boshyalang edi. Sovuq tomchilardan vujudi seskansa-da, qadamini tezlatmadi.

Tasavvuridagi qo'ng'ir bulutlar ayovsiz bostirib kela boshladi. Momaqaldoq guldirab, chaqmoq chaqdi. Asilning yuragi beixtiyor zirillab ketdi, ammo unchalik qo'rwmadi. Orqasidagi og'irlashib qolgan sumkani bir silkib olgach, yo'lakdan bamaylixotir yurib kelaverdi. Uyiga oshiqib borayotgan bolakaylarga, boshiga shamsiya tutgan kattalarga ajablangandek tikildi: axir yomg'ir mazza-ku! Shoshib nima zaril?! Uyiga qaytganida, u yomg'irda shalabbo bo'lgan edi.

Uning ahvolini ko'rgan oyisi astoydil koyidi:

— Voy sho'rim! Suvga tushgan tovuqdek bo'kib qolibs-san-ku!? Akalaring ham hozirgina maktabdan kelishdi, ammo senchalik ivishmagan...

— Men yurgan joylarda yomg'ir ko'p yog'di-da, — dedi Asil ko'zlarini pirillatib.

— Gapingni qara-yu! Shu qilig'ingga yarasha endi bugun ko'chaga chiqmaysan! Uyda jimgina o'tirib, darsingni qilasan.

Xullas, oyisi uni jazoladi. Akalari — Azamat bilan Alisher darslarini qilgach, kichkina Anorani yetaklab o'ynagani ko'chaga chiqib ketishdi. Bu orada yomg'ir ham tinib qolgan edi.

Asilning miyasiga shu tobda dars kirmas, xayoli ko'chada edi. Bir-ikki marta o'g'rincha derazadan tashqariga qaramoqchi bo'lvdidi, oyisi sezib qolib urishib berdi. Noiloj yana kitobni qo'liga oldi, ammo sahisaga tikilgan ko'zlar hech nimani ko'rmas, ichi qizib borar, go'yo ko'kragiga qamalib olgan qushcha uchib ketolmay tipirchilar edi.

Shu payt eshik qo'ng'irog'i chalinib, do'sti Aziz kirib keldi:

— Asil, Zuqqining (Zuhreddin demoqchi) iti tug'ibdi. Yur, birga borib kuchuklarini ko'rib kelamiz.

— Vuy, rostdanmi?

— Borasanmi?

— Borardim-u... oyim... — Asil peshonasini qashlab, burnini tortdi.

— E-e, lip etib quyon bo'lsang, bilib

o'tiribdilarmi?

— Asil, nima gap? Kim keldi? — ichkaridan oyisining ovozi, keyin shash shash qadam tovushlari eshitildi.

Bolalar birdan jimb, sarosimaga tushib qolishdi. Oyisi nima gapligini darrov fahmladi, shuning uchun gapni qisqa qildi:

— Asil bugun hech qayoqqa chiqmaydi! Sen o'rtog'ingni boshini qotirma.

Aziz hafsalasi pir bo'lib, chiqib ketdi.

Ketma-ket aksa urgancha Asilning burni unga bo'y bermay qo'yi. Tinimsiz oqayotgan burnini boshqarolmay, ancha ovora bo'ldi. Holsizlanib, o'tirgan joyida yonboshlab qoldi. Oyisi kelganda, issig'i ham ko'tarilib qolgan edi.

— Yomg'irda ko'p yurganining uchun shamollab qolibsan, o'g'lim, — dedi oyisi tanbehomuz ohangda. — O'jarsan, qulog'ingga gap kirmaydi. Mana oqibati... Endi qimirlamay o'ranib yotasan. Men senga tovuq sho'rva qaynataman, issiq-issiq ichib olsang, tez tuzalasan.



Asil indamay shipga tikilib yotaverdi. Ko'zini ochsa, yonida Anorani ko'rdi. Negadir u o'zicha o'ylab qoldi, qiziq, nega yonida akalari emas, Anora turibdi? U ko'proq singlisi bilan o'ynar, gohi bilibilmay uni ranjitib, yig'latib ham qo'yari, ammo tezda yarashib, yana apoq-chapoq bo'lib ketar edi. «Endi uni sirayam xafa qilmayman!» deb qo'ysi u o'ziga o'zi so'z bergandek pichirlab.

Axiyri yotaverib zerikib o'rnidan turdi. Shu mahal yonida Anora paydo bo'ldi.

— Shamollaganda, albatta o'ranib yotish kerak! Bog'chamizdag'i hamshira opam shunday degan, — Anora akasini yana ko'rpaga o'rab qo'ysi. — Tuzalib qolganingizdan keyin mazza qilib birga o'ynaymiz.

Boshqa mahalda Asilning jahli chiqqan, «ishing nima», deya singlisini jerkib tashlagan bo'lardi. Ammo hozir xuddi Anoraning qo'g'irchog'idek singlisiga bo'ysundi.

Faqat bilinar-bilinmas sekin xo'rsinib qo'ysi.

— Akajon, zerikyapsizmi? — deb so'radi Anora. — Ertak aytib beraymi?

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda chol bilan kampir bo'lgan ekan.

Chol har kuni saharda o'tin tergani borarkan...

Anora ertakning yarmiga borganda to'xtab qoldi. Harchand urinmasin, davomini eslolmadi. Shunda u o'ylab ham o'tirmay, boshqa ertakni ayta ketdi. Ammo uni ham oxiriga yetkazolmadi. Asil bu ertaklarni ilgari ham ko'p eshitgan bo'lsa-da, singlisining shashtini qaytargisi kelmadi. U jimb qolgach, Asil ohista ko'zini yumi. Anora qo'g'irchog'ini ko'tarib, uyning bir burchagida dars qilayotgan akalariga barmog'i bilan «Jim, to'polon qilmanglar!» deya ishora qildi-da, oyoq uchida ohista yurib chiqib ketdi.

Asil qattiqroq shamollagan chog'i, kechasi yana issig'i ko'tarildi. Tez-tez uyg'onib, bezovtalandi. Onasi yonida mijja qoqmay o'tirib chiqdi. Anora ham allamahalgacha oyisiga qarashgan bo'lib, uxlamadi. Axiyri charchab, qo'g'irchog'ini bag'riga mahkam bosgancha dong qotib uxbab qoldi.

Ertalab Asil biroz o'ziga kelib tetiklangan bo'lsa-da, oyisi uni maktabga yubormadi. O'zi ham ishga bormadi. Azamat bilan Alisherni maktabga, Anorani bog'chaga jo'natar ekan, ularni bir chetga chaqirib, sekingina gapirdi:

— Bilasizlarmi, bugun Asilning tug'ilgan kuni! Xo'sh, endi nima qilishimiz kerak?

— Tabriklash kerak! — Anora burro javob qildi.

— Barakalla, qizim! Tabriklash kerak!

— Pul bering, do'kondan sovg'a olib kelamiz! — dedi to'ng'ich o'g'il Azamat.

— Akvarium olaylik, unga baliq solib qo'ysak, hammamiz tomosha qilaveramiz, — dedi Alisher.

— Xo'sh, sen nima deysan, Anora? — deb so'radi oyisi.

— Men o'zim sovg'a tayyorlasam maylimi, oyijon? — Anora munchoq ko'zlarini pirpiratib oyisiga tikildi.

— O'zimning esli qizimdan aylanay! — oyisi Anoraning boshini silab erkaladi.

Bolalar uzzu-kun Asilga qanday sovg'a tayyorlasak ekan, deya bosh qotirishdi. O'ylay-o'ylay har kim qo'lidan keladigan hunarini ishga soldi.

Aka-ukalar tasviriy san'at to'garagiga qatnashar, Anora ham ba'zan ularga taqlid qilib o'zicha rasmlar chizardi. Bolalar kelishilganidek sovg'ani bir-biridan sir tutgan holda mustaqil tayyorlashdi. Azamat Asilning yomg'irda ivib qolganini o'zicha o'xshatib chizdi. Alisher plastilindan hayvon va qushlarning haykalchalarini bejirimgina yasadi. Anora esa oppoq kabutar jajji tumshuqchasida xatni tishlab turgan holatini hamda guldastani chizdi. So'ngra, ularni qirqib, katta karton qog'ozga hafslala bilan yopishtirdi. Oyisi o'z qo'li bilan chiroyli ko'ylak tikdi. Otasi sportchilarning chiroyli kiyimini sovg'a qildi. Asil uni darrov kiyib oldi.

Asil bugun tug'ilgan kuni ekanligini kechqurun hamma dasturxon atrofida jamuljam bo'lib unga sovg'a topshirishayotganida bildi. Quvonchdan ko'zlar charaqlab ketdi. U oila a'zolarini hech qachon shu bugungidek yaxshi ko'rmangan edi.



**Tengdoshlarining ijodi**

*Fariza Avezova Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahridagi 37-son maxsus maktabining 8-sinfida o'qiydi. U 2-sinfda o'qib yurgan paytlaridagi respublika bolalar va o'smirlarning qoraqalpoq tilida chiqadigan «Jetkinmen» gazetasida maqolalari bilan tshtirok eta boshladi. U bo'sh paytlarida she'rlar ham yozadi. Qoraqalpog'iston televideniyesida jazzi kichkintoylar uchun «Kim epchil, kim chaqqon» ko'rsatuviga boshlovchilik qiladi.*

## BIZ BAXTIYOR YOSHLARMIZ

Maktabimiz ozoda,  
Yangilandi yaqinda.  
Sport bilan chiniqsam,  
Maydoncha bor yonida.

Imkon bordir o'qishga,  
Chuqur bilim olishga.  
Xohlasang til o'rganib,  
Chet ellarga borishga.

Ustozlarim onamday,  
Bor aqlini beradi.  
O'qib kelsak, bizlarni  
Juda yaxshi ko'radi.

Elim tinch va obod,  
O'qib bilim olaman.  
Minnatdormiz shu bois,  
Prezident otadan.

Kelajakka armonsiz,  
Dadil qadam tashlarmiz.  
Obod elda yashagan,  
Biz baxtiyor yoshlarmiz.

## Ona Yurtim

Men tug'ilgan go'zal elsan,  
Kindik qonim tomgan yersan.  
O'ynab, quvnab o'sgan bo'ston,  
Aziz Qoraqalpog'iston!

Sendan ketsam gar uzoqqa,  
Tushgandekman gar tuzoqqa.  
Sog'inaman yana boshdan,  
Aziz Qoraqalpog'iston!



2008 Tong yulduzi  
22-sentabr

## Bo'lar bola boshidan

Qisqacha Rivaldo yoki Rivaldo Vitor Borba Ferreyra. Bu futbolchini tanimagan, bilmagan yosh-u qari bo'lmasa kerak. Ha, hozirda Toshkentning «Bunyodkor» jamoasida debiyut uchrashuvining o'zida dublga erishib, yurtimiz futbol ishqibozlarini quvontirgan 36 yoshli braziliyalik yulduz – Rivaldo hammaning daqqat e'tiborida.

Braziliyaning bir karra, Ispaniyaning ikki karra, Gretsianing uch karra championi va kubogi egasi, Italiya kubogi sohibi, Juhon championi va Yevropa championlari Ligasi g'olib, Juhon va Yevropaning eng yaxshi futbolchisi bo'lib, «Oltin to'p» sohibiga aylangan Rivaldo 2008-yilgi mavsumni «Bunyodkor» safida O'zbekiston championligi va Osiyo championlari Ligasi kubogini qo'lga kiritish niyatida.



## «OTAMNING ORZUSI»

Ayni paytda oilasi bilan Toshkentda istiqomat qilayotgan Janubiy amerikalik «super yulduz»ning bolaligi Braziliyaning Resifi shahrida o'tdi.

Bolaligidan hayotning achchiq sinovlarini boshdan kechirgan Rivaldoning futbolga kirib kelishiga uning otasi sababchi bo'lgan. Uning otasi Resifi shahri hokimining kotibi Romildo Vitor Gomesh Ferreyra o'g'illari Rikardo, Rinaldo va Rivaldolarning barchasini futbolchi bo'lishini istagan edi.

1972-yil 19-aprel kuni dunyoga kelgan kenja o'g'il – Rivaldo ota istagini amalga oshirishga qattiq bel bog'laydi.

Eng nimjon, kasalmand, g'amgin bolakay qayerga bormasin, otasi sovg'a qilgan koptokni olib yurardi. Uning birgina ovunchog'i va sirdoshi ham koptok edi. Rivaldo o'n yoshga to'lganida, otasi unga o'zlar oilasi bilan muxlislik qiladigan «Santa Krus» klubni futbolkasini va butsisini sovg'a qilib, futbol makkabiga olib boradi. O'shanda u quvonganidan o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Ammo Rivaldoning o'yinini ko'rgan murabbiylar uning kelajagi yo'q,



amalga oshirish uchun haqoratlarga va dashtnomrlarga chidaydi. Tinimsiz mashg'ulotlar uning haddan tashqari madorini quritadi. Ammo bolalikning achchiq-chuchuk xotiralari, otasining so'nggi so'zlar va onasining duolari Rivaldoga madad bag'ishlaydi.

Qisqa vaqt ichida mashqlar samara berib, uning to'p bilan muomala qilish san'ati ham o'zgaradi.

Bolaligida «maymoq o'rda» laqabini olib, masxara bo'lib o'sgan Rivaldo vaqt o'tishi bilan dunyoning eng yaxshi o'yinchilaridan biriga aylandi. U faoliyati davomida o'zi o'ynagan jamoalar bilan bir futbolchi erishishi mumkin bo'lgan barcha yutuq va sovrinlarga munosib topildi. Faqatgina bu sovrinlar orasida O'zbekiston championligini va Osiyo championlari Ligasi kubogini qo'lga kiritilishi qolgan, xolos...

«Bunyodkor» jamoasi tarkibida oltinchi raqamda to'p surayotgan Rivaldo bu yutuqlarni ham qo'lga kiritishga astoydil harakat qilmoqda. Zero, «Bunyodkor» championatda ham, Osiyo championlari Ligasida ham omadli ishtirot etib kelmoqda.

*Sherali NAMOZOV*

## MUSIQA UXLATADIMI?

Aytishlaricha, Abu Nasr Farobiy Aristotelning «Jon haqida» asarini yuz marta o'qigan ekan. Uning «Fizika» asarini qirq marta o'qib, yana o'qish kerak, degan ekan.

Ha, bolalar, ilm igna bilan quduq qazishdirki, u hech qachon osonlikcha qo'lga kiritilmaydi.

\* \* \*

Damashq amiri Sayfuddavla olimlar davrasida faqat nozir va xizmatkorlar bo'lguvchi yashirin tilda gapiradi va Abu Nasr Farobiydan bu tilni bilish-bilmasligini so'raydi.

– Bundan boshqa yana yetmish tilni

bilaman! – deya javob qiladi alloma.

Til bilish – fazilat. Bir til eshigini ochsang, ikkinchisiga kalit topasan.


Abu Nasr Farobiy musiqa ilmida ham benazr bo'lgan. U amir saroyida bir kuyni chalganda, odamlar kula boshlaganlar. Boshqa kuyni mashq qilganda, yig'lashga tushganlar. Yana bir boshqa kuyni tarannum etganda, amirdan tortib darvozabongacha uxbab qolgan, o'zi esa saroydan chiqib ketgan.

Darvoqe, musiqa inson qalbining dil torlaridir. Shu bois ham inson musiqa tinglab, huzur qiladi, goho yig'laydi, fozillar esa undan unumli foydalanadilar.

Siz ham fozillar yo'lini tuting, aziz bolalar!



## O'G'IL NABIRALARIMGA:



O'g'il bola naslning davomchisi, otasining yordamchisi va mamlakatning quvvatidir.

\* \* \*

Otajoning 40 yoshga kirganida, yarim umrini o'taganligini hisobga olib, ularni yashash sharoiti-yu mehnatlariga katta g'amxo'r bo'lishing kerak.

\* \* \*

Til bol keltiradi, til balo keltiradi, bundan xulosa chiqarib yur!

\* \* \*

Qanoat eng katta boylik, toqatli bo'lish kerak.

\* \* \*

Bir amaldor xasta – betob o'g'lini tabibga ko'rsatgan ekan. Tabib bemorni ko'rib, 40 kun harom narsalardan saqlanib, keyin kelsin, deb javob bergan ekan.

Amaldor 40 kundan keyin kelib tabibga: «Nega shu gapni 40 kun oldin aytmasdan, endi aytdingiz», desa, tabib: «Men ham 40 kun haromdan parhez qilib, keyin senga shu maslahatni berdim», degan ekan. Bu bilan fikr shuki, har bir inson o'zi mehnat qilib, peshona teri bilan topgan narsaning sog'lik uchun ahamiyati kattadir.

\* \* \*

Ota-onang mag'zin senga hadya etib, o'zlar po'choqqa aylanadi. Ularni baxtli qiladigan ham, baxtsiz qiladigan ham sen.

## O'QI, QIZIQ!

1. Juhon bo'yicha eng ko'p kitobi sotilgan yozuvchi Agata Kristi hisoblanadi. Uning kitoblari 1920-yildan beri ingliz tilida 1 milliard nusxada sotilgan. Yana 45 tilga tarjima qilingan to'plamlari ham shuncha nusxada savdoga chiqarilgan. Kitoblari eng ko'p sotilishi bo'yicha u faqat Uilyam Shekspirdangina ortda qolmoqda.

\* \* \*

2. Dunyoda eng ko'p ko'prik Sankt-Peterburg shahrida. Ularning umumiy miqdori 539 tani tashkil etadi.

\* \* \*

3. Odam qoni uning tanasi og'irligining 7 foizini tashkil etadi. Agar odam og'irligi 70 kg. bo'lsa, u holda uning organizmida 5 litrga yaqin qon bo'ladi.

\* \* \*

## BUGUNNING

Aziz bolajonlar!  
Sahifamizning bugungi mehmoni  
Xorazmdagi 24-maktab qoshida tashkil  
etilgan «Lazgi» raqs dastasi.

## «YANGI AVLOD» LARI



Dasta ayni kunlarda Xorazm viloyatidagi ko'pgina bayram tadbirlarida va ko'rik-tanlov larda faol ishtirok etib, faxrli o'rnlarni qo'lg'a kiritib kelmoqda. 2007-yil guruh uchun quvонchlarga boy bo'ldi. Ular «Yangi avlod-2007» bolalar ijodiyoti festivalining g'olibi bo'lishdi.

— Tanlovdagi g'olibligimiz bizga yana-da katta mas'uliyat yuklaydi. Biz bundan keyin ham o'z raqlarimiz bilan tomoshabinlarni xushnud etishni istaymiz, — deydi dasta sardori Umida Maylonova.

Guruuning kelgusidagi rejalar ulkan va ular ana shu orzular ro'yobini ko'rish maqsadida astoydil mashq qilmoqdalar.

Biz ham ularga omad tilab qolamiz.

Nazokatxon TOJIBOYEVA

## xanda



## MEHNATKASH BOG'BON

Kuz faslida onasi bilan bog'da sayr qilib yurgan to'rt yoshli Jahongir dedi:

— Oyi, bog'bon hech erinmas ekan-a, yozda kelanimizda barglar ko'm-ko'k edi, hozir esa sariq. Hammasini bo'yab ulguribdi...

## MEN O'YNAMAYMAN

Jamshidning dadasi mehmon bilan shaxmat o'ynardi. O'yindan chiqqan shaxmat donalarini yig'ib zerikkan uch yoshli Jamshid dedi:

— Bo'ldi, men endi biroz dam olay, o'zlarin o'ynayveringlar.

## Tong YULDUZI

## Muassisalar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'limagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:  
Fazliddin SHOYODGOROV  
Navybatchi:  
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10


Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.

Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092

Adadi - 21392  
Buyurtma N: J 6006

## FAYZLI MAHALLA



«Qarisi bor uyning parisi bor», deb bejiz aytilmagan. Men shu hikmatli iboraga qarisi bor mahallaning parisi, farish-tasi, fayzi bor, deya qo'shimcha qilgim keldi.

Mahallamizda sanoqli, yoshi ulug' onaxonlarimiz va otaxonlarimiz istiqomat qilishadi. Hech bir to'yasham, yig'inlar ularsiz o'tmaydi. Muborak ayani ko'rpachalar tikish, qavishda oldilariga tushadigani yo'q. Farog'at ayaning esa bilmagan narsalari yo'q, barcha savolningizga javob beradilar, maslahatlarini ayamaydilar. A'lo aya esa yoshlari ulug' bo'lishiga qaramay, kelinlaridan ham chaqqonroqlar. Mahbuba ayani aytmaysizmi, ozoda, saranjom-sarishtali ayol. O'ktam aya esa erkakshoda, nafaqat oilada, balki mahallada ham tartib-intizomni nazorat qilib turadilar.

Har tong o'qishga ketaturib, ularning duolarini olgan har bir farzandning ishi o'ngidan kelishi aniq. Otamning «Qariyalarning duosini olsang, kam bo'lmaysan, qizim», deganlariga yana bir karra amin bo'laman.

Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, bayramlarimiz tiklandi. Mana, muborak hayat kunlari yaqinlashmoqda. Ushbu kunda bu munisa va muhtarama onaxonlarimizga sog'lik, uzoqumr tilayman. Doimo nabiralar davrasida, farzandlar va mahalladoshlar e'zozida bo'lishlarini istayman.

Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA




## Ko'k kit

Sayyoramizdagagi eng katta joni vor ko'k kit hisoblanishini bilasizmi? Uning uzunligi 20 metrgacha, og'irligi esa 150 tonnagacha boradi. Ushbu kitning birgina tilining og'irligi butun boshli filning og'irligiga tengdir. Suvda yashashiga qaramay, kitlar sut emizuvchilardir. Urg'ochi kit tirik bolalar tug'adi va ularni sut bilan boqadi. Kitlar bir-birlari bilan tovush orqali muloqot qiladi. Kit qancha yirik bo'lsa, uning ovozi shuncha baland bo'ladi. Ular odatda past ovoz chiqarganda, 10 kilometrgacha bo'lgan masofaga signal jo'natishi mumkin ekan.

## FURSATDAN FOYDALANIB...

*Daryolar qirg'og'ini tutashtirgan ko'priordan arava haydar o'tishga ko'rsatma bo'yicha ruxsat berilmagan. Ko'prika qorovul bo'lib, uni kecha-kunduz qo'riqlaydi. Har safar aravakash ko'priordan o'tmoqchi bo'lganida, qorovul uni orqaga qaytaradi. Biroq, hozir qorovul mudrab o'tiribdi. Bu holatda ko'priordan arava bilan qanday o'tib olish mumkin?*



## O'rdakburun

O'rdakburun chinakam tirik tarixiy hayvondir. Bugun ularni faqatgina Avstraliya va Tasmaniya uchratish mumkin. O'rdakburun suvda juda yaxshi suzadi, mo'ljalni esa paypaslab oladi; sababi, quloq va ko'zları suv ostiga tushgan zahoti terisimon parda bilan yopiladi. Ammo ushbu hayvonning eng hayratomuz xislati u boshqa sut emizuvchilar kabi bolalarini tug'maydi, balki tuxum bosadi. Urg'ochi o'rdakburun odatda ikkiti tuxum qo'yadi va 7-10 kundan so'ng palaponlar dunyoga keladi. Onasi ularni sut bilan boqadi.

DILOROM tayyorladi